

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **754 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **1,0 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **377 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oyida Buxoro viloyatida yilning boshiga nisbatan 557 korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 412 o'tgan yilning shu davriga ta (2,6 %) ga nisbatan 38 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tut gatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga oshgan hamda ularning soni 180 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 412 o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 16037 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlar ning asosiy ulushi Buxoro shahrida (32,8 %), G'ijduvon (10,5%), Romitan (7,5 %) va Buxoro (6,9 %) tumanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	Birlik	jamiga nisbatan %	Birlik	jamiga nisbatan %
<b>Buxoro viloyati bo'yicha</b>	<b>16911</b>	<b>100,0</b>	<b>16037</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
Olot	581	3,4	523	3,3
Buxoro	1265	7,5	1111	6,9
Vobkent	829	4,9	814	5,1
G'ijduvon	1813	10,7	1688	10.5
Kogon	866	5,1	798	5,0
Qorako'l	848	5,0	809	5,0
Qorovulbozor	304	1,8	292	1,8
Peshku	1040	6,2	1009	6,2
Romitan	1232	7,3	1197	7,5
Jondor	1125	6,7	1053	6,6
Shofirkon	1036	6,1	942	5,9
<i>shaharlar</i>				
Buxoro sh	5409	32,0	5261	32,8
Kogon sh	563	3,3	540	3,4

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



01.03.2018 y.


faoliyat ko'rsatayotganlar

faoliyatsizlar


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,8 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,3 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 14,8 % sanoatda, 9,7 % qurulishda, 9,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,4 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-fevral holatiga 557 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (176 ta), Romitan (64 ta), G'ijduvon (40 ta) va Kogon tumanlarida (38 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (15 ta), Olot (18 ta) hamda Vobkent (23 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (112 ta), savdoda (98 ta), boshqa turlarda (96 ta) va sanoatdada (95 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), tashish va saqlashda (14 ta) va sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (22 ta) tashkil etilgan.

### **Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda (-1,5 f.p.), savdoda (-1,5 f.p.), tashish va saqlashda (-0,3 f.p.) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,8 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,6 f.p.), qurilishda (+0,1 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,1 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,8	4,3	-1,5
Savdo	22,0	23,5	-1,5
Axborot va aloqa	1,3	1,3	0
Sanoat	14,8	14,1	0,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9,9	9,1	0,8
Qurilish	9,7	9,6	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	5,6	0,6
Tashish va saqlash	6,4	6,7	-0,3
Boshqa turlari	26,9	23,7	3,4

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 mart holatiga 13159 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3023 ta, oilaviy korxonalar – 720 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9035 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 26 tani va boshqalar 355 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 94 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga yoki 13,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 63 tasi qo'shma korxonalar, 31 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 54 ta (57,4 %), Kogon tumani 9 ta (16,7 %) va Vobkent tumanlari 7 ta (7,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Kogon shahri 2 ta (2,1 %), Qorovulbozor tumani 1 ta (0,1 %), G'ijduvon tumani 1 ta (0,1 %) va Shofirkon tumani 1 ta (0,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 61 ta (64,9 %), savdoda 12 ta (12,8 %), boshqa turlarida esa 7 ta (7,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'r-satishda 1 ta (1,1 %), axborot va aloqada 1 ta (1,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo-'jaligi 2 ta (2,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta (6,4 %) va qurilishda 4 ta (4,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 4 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan yoki 1,3 baravarga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 1 ta, savdoda 2 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13026 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 7,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4470 tasi (34,3 %) Buxoro shahriga, 1390 tasi (10,7 %) G'ijduvon, 995 tasi (7,6 %) Romitan, hamda 914 tasi (7,0 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13026 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3500 tasi (26,7 %) – savdoda, 2327 tasi (18,0 %) - sanoatda, 1528 tasi (11,7 %) - qurilishda, 1549 tasi (11,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 990 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1018 tasi (7,8 %) - tashish va saqlashda, 192 tasi (1,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 371 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1551 tasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 514 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,2 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (163 ta), Romitan (63 ta), G'ijduvon (55 ta) va Buxoro tumanlarida (38 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (9 ta), Vobkent (15 ta) hamda Shofirkon (17 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (140 ta), sanoatda (130 ta), savdoda (77 ta) va qurilishda (51 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (15 ta) hamda tashish va saqlashda (28 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 758 tani tashkil etib, ulardan 720 tasi yoki 95,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **33,9** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,9 % yoki 208 tasi sanoat, 29,0 % yoki 209 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,0 % yoki 101 tasi savdo, 15,0 % yoki 108 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 7 tasi qurilish, 1,1 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,8 % yoki 56 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Nashr uchun mas'ul:** F.Xakimova  
(65) 230-83-20,21

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat**  
**registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida**  
**tayyorlangan**